



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI
B U Y R U Q**

“13” 07 2022 yil.

Nº 14

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samaradorligini tubdan takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 27-noyabrdagi PF-5729-son Farmoni, “Korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021-yil 6-iyuldagagi PQ-5177-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, vazirlik va uning tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni samaradorligini oshirish hamda vazirlikda korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini ISO 37001:2016 korruptsiyaga qarshi xalqaro standartlar talablariga muvofiq tashkil etishni ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. Quyidagilar:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va uning hududiy bosh boshqarmalarida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom 3-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi xodimlarining etika va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomasi 5-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomasi 6-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar 7-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligida Korruksiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligida korruksiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi xodimlarining korruksiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglamenti 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazir o‘rinbosarlari, barcha departament direktorlari, mustaqil boshqarma va bo‘lim boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish Bosh boshqarmalari boshliqlari tasdiqlangan ilovalar bilan belgilangan vazifa va topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlasinlar.

3. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tizimdagи boshqa tashkilotlar 10 kunlik muddatda mazkur buyruqdan kelib chiqib, o‘zlarining tegishli buyruqlarini qabul qilsinlar va ularning ijrosi bo‘yicha shaxsiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olsinlar.

4. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va hududiy Bosh boshqarmalarda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan nizom, reglament va yo‘riqnomalar mazmuni va mohiyati bo‘yicha taqdimot o‘tkazish grafigi 11-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korruksiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limiga (B.Nabiiev) Ijro intizomi va Davlat dasturlarini monitoring qilish boshqarmasi (A.Mingboev) bilan birgalikda ushbu buyruq bilan belgilangan vazifa va topshiriqlarni muvofiqlashtirish va nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

6. Axborot xizmati (D.Jurayeva) ushbu buyruqni vazirlikning rasmiy veb-sayti va boshqa ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Devonxona (G.Niyazova) ushbu buyruqni vazirlikning hududiy bosh boshqarmalari va tizimdagи tashkilotlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir

D.Kuchkarov

